SCIENCE HUB REVIEW
2026
Volume 1
Issue 3
www.sciencehubreview.uz
ILMIY ELEKTRON JURNAL

OILADA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Nabiyeva Dilbarxon Avazovna

Toshkent davlat tibbiyot universiteti tyutori

Annotatsiya
Ushbu maqolada oilada shaxslararo munosabatlar, er va xotin munosabatlari, oilada ijtimoiy psixologik muhit, er-xotin munosabatlari muammolarini o'rganish har doim insoniyat jamiyati taraqqiyoti davomida keng ilmiy jamoatchilik diqqat e'tiborida bo'lib kelganligi ilmiy asoslar orqali yoritildi.
Kalit so'zlar
oila, nikoh, shaxslararo munosabat, psixologik muhit, madaniyat, emotsional xolat, axloq, qadriyatlar, ta'lim-tarbiya, farzandlar kamoloti.

Kirish. Insoniyat tarixida yangi asrning xususiyatlari ma'naviyat masalalariga ustuvor axamiyat berilishini taqazo qilmoqda. Zero, jamiyatning ijtimoiy - siyosiy, iqtisodiy muammolarini yuksak ma'naviyat soxibi bo'lgan kishilar xal qilishini hayotiy tajribalar isbotlab bermoqda. Ayniqsa, fan-texnika taraqqiyoti tez sur'atlar bilan amalga oshayotgan ijtimoiy - siyosiy munosabatlar globallashayotgan va intensivlashayotgan hozirgi davrda yuksak ma'naviyatli insonni tarbiyalash masalasi umuminsoniyat sivilizatsiyasi kelajagini belgilaydigan omilga aylandi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, oila, oilada shaxslararo munosabatlar, oilada ijtimoiy psixologik muhit, er-xotin munosabatlari muammolarini o'rganish har doim insoniyat jamiyati tarqqiyoti davomida keng ilmiy jamoatchilik diqqat e'tiborida bo'lib kelgan.

O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek "Oila va jamiyat ustuni, hayotimizning fayzi va ko'rki bo'lgan xotin-qizlarni e'zozlash, ularga hurmat va ehtirom

ko‘rsatish xalqimiz uchun avzal-azaldan buyuk qadriyat bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi.”[1] Bu fikr orqali yurtboshimiz shaxslararo munosabat ijtimoiy taraqqiyotdagi muhim hodisa ekanligini ta’kidlaydi.

Zero, oila farovonligi - milliy farovonlik asosidir. Shu boisdan kishilik jamiyatida oilaning paydo bo‘lishi tarixini, ijtimoiy mohiyatini, ahloqiy - tarbiyaviy rolini va boshqa xususiyatlarini o‘rganish g‘oyat muhimdir. Bu ko‘p qirrali muammo bo‘lib jamiyat taraqqiyotini belgilaydi, barkamol va jismonan sog‘lom avlodni tarbiyalashda jiddiy ahamiyatga ega. Haqiqatdan, inson salomatligi va ma’naviy kamolotining birinchi poydevori oilada qo‘yilar ekan, bu borada o‘zbek xalqining oilada farzand tarbiyasi diqqatga sazovordir. Bu tajribada milliy tarbiya an’analari, inson ma’naviyatini shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lgan umuminsoniy qadriyatlar ham o‘z ifodasini topgan.

Oila – jamiyatning ajralmas bo‘lagi, qismidir. Har qanday istiqbol oilaning manfaatlaridan ayro tasavvur qilinmaydi. Zero, har bir inson uchun oila bu umrning boshlanishi, barcha narsalaring muqaddimasidir. Qolaversa, har bir inson o‘z baxti va saodatini eng avvalo oilasi bilan bog‘laydi, ya’ni, o‘z uyi, oilasida baxtli bo‘lgan insongina o‘zini to‘laqonli baxtiyor his etadi. Shu bois ham inson manfaatlari oliy qadriyat sifatida e’tirof etilgan mamlakatimizda olib borilayotgan odilona siyosat har tomonlama ushbu muqaddas go‘shani mustahkamlashga qaratilgandir.

Asosiy qism. Inson manfaatlaridan kelib chiqib ,davlatimiz keyingi yillarda oilalar farovonligi va mustahkamligiga e’tiborni yanada kuchaytirmoqda.

Insoniy munosabatlar asosida shaxslararo munosabatlar shakllanadi va namoyon bo‘ladi. Bu jarayon dastlab odamlar orasida ro‘y beradigan fikrlar, his-kechinmalar, tashvishu-quvonchlar almashinuvini nazarda tutiladi. Odamlar muloqotda bo‘lishgani sari, ular o‘rtasidagi munosabatlar tajribasi ortgan sari ular o‘rtasida umumiylik, o‘xshashlik va uyg‘unlik kabi sifatlar paydo bo‘lib boradi. Ular bir-birlarini bir qarashda tushunadigan yoki yarimta jumladan ham fikrini bilib oladigan bo‘lib qoladi. Ba’zi xollarda esa bu muloqotning tig‘izligi teskari reaksiyalarni, ya’ni, bir-biridan

[1] Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз..Т.”Ўзбекистон”. 2016 й., 12 б.

charchash, gapiradigan gapning qolmasligi kabi vaziyatni yuzaga keltirib chiqaradi. Masalan, oila muhiti va undagi munosabatlar ana shunday tig‘iz munosabatlarga kiradi. Faqat bunday tig‘izlik oilaning barcha a’zolari o‘rtasida bo‘lishi mumkin (ona-bola, qynona-kelin va hokazo).

Shaxslararo munosabatlarni o‘rganish oilaviy munosabatlar psixologiyasi fanida eng dolzarb muammolardan hisoblanadi. chunki inson shaxsining eng nufuzli va yetakchi faoliyatlaridan biri bo‘lgan muloqot va u orqali o‘zaro munosabatlar odamlar orasida umumiylik, o‘xshashlik, uyg‘unlik kabi sifatlar paydo bo‘lishiga olib keladi. Ayniqsa, oila muhitida shaxslararo munosabatlarning, chunonchi, ota-ona va farzand orasidagi munosabatlarning o‘ziga xos tomonlari shaxsning hayoti, faoliyatining samarasi va mazmuniga bevosita ta’sir etadi.

Oilada sog‘lom psixologik muhitni tarkib toptirish orqali oila barqarorligini ta’minlash, shaxslararo munosabatlarning oilada sog‘lom psixologik muhitdagi o‘rni va ta’sirini o‘rganish, oilada kuzatiladigan shaxslararo munosabatlarning oila a’zolari tomonidan baholanishi darajasini o‘rganish orqali jamiyatdagi barqarorlikni o‘rganish, tahlil qilish mumkin.

Oilaviy munosabatlar tizimi juda murakkab va ancha teran mazmunga ega bo‘lib, o‘z ichiga er-xotin o‘rtasidagi, ota-ona va farzandlar, aka-uka va opa-singillar o‘rtasidagi va shu kabi qator munosabatlar tizimini oladi.

Oiladagi shaxslararo munosabatlar shaxs shakllanishining muhim omili hisoblanadi. Oilaning eng muhim vazifalaridan biri shaxs rivojlanishi uchun munosib sharoitni yaratishdir.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 76-moddasida “Oila jamiyatning asosiy bo’g’inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir.Nikoh O’zbekiston xalqining an’anaviy oilaviy qadriyatlariga nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi.Davlat oilaning to’laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy,iqtisodiy,huquqiy va boshqa shart –sharoitlar yaratadi” degan normalar aks etgan.Haqiqattan ham,o’zbek xalqida oila ne’mati doimo aziz tutilgan ,qo’ydi –chiqdilar va ajrimlar jiddiy qoralangan,er-xotin ajrashsa arshning kursisi zir titraydi,deyishgan.Oila tushunchasi bundan keyin ham bizda muqaddas bo’lib qolishiga ishonchim komil.

Sharq madaniyati va ma’naviyati shu qadar noyob, betakror va jozibali bo‘lib, buning asosiy sabablaridan biri o‘zbek oilasining betakror muhiti, undagi an’analar, rasm-rusmlar va qadriyatlarning barhayotligidadir. Zero, har qanday oila inson taqdiri va kamolotini, kelajagini belgilab beruvchi omil ekanligi bilan xarakterli hisoblanadi. Ayniqsa, undagi an’analar, milliy qadriyatlar ma’naviy boy, axloqan yetuk, intellektual rivojlangan yuqori bilimli, jismonan baquvvat, har tomonlama kamol topgan shaxsni, ya’ni sog‘lom avlodni tarbiyalash, voyaga etkazishda ularning o‘rni va ahamiyati kattadir.

Haqiqatdan ham har bir oila qurmoqchi bo‘lgan yoshlar oilaning jamiyatda, inson hayotidagi ahamiyatini, uning vazifalari, ma’suliyatlarini anglab yetishi, farzandli bo‘lish, tarbiyalash masalalarini, ota-ona, qarindoshlari bilan munosabatlarini to‘g‘ri yo‘naltirishi lozimligini anglab yetishi, ajdodlarimizdan meros bo‘lib qolgan qadriyatlar, ijobiy urf - odat, an’analar, bularning oilaviy hayotini mustahkamlashda, farzandlar tarbiyalashdagi o‘rnini bilishi haqida to‘la tasavvurga ega bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

Aytish mumkinki, oila-hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta’minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga kelajak nasl qanday inson bo‘lib etishishiga ta’sir ko‘rsatadigan katta tarbiya o‘chog‘idir.

Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini ekanligi bois, oila tinch va barqaror bo‘lsa, yurt ravnaq topadi.

Xulosa. Jamiyat mustahkam, ma’naviy va axloqiy jihatdan sog‘lom oila bo‘lishidan manfaatdordir. Oiladagi nosog‘lom muhit juda ko‘p illatlar qatori, odamning o‘z salomatligi holatiga bo‘lgan munosabatini salbiy tomonga o‘zgartirib yuborishi mumkin. Bunday o‘zgarishlarning ham turlicha sabablari bor. Masalan, agar oila a’zolari ma’lum sog‘lom turmush tarziga o‘rgangan bo‘lsalar ham, biror sabab bilan shu oilada nizo, janjal kelib chiqsa, bu holat barcha oila a’zolari tafakkurining salbiy tomonga o‘zgarishiga olib keladi. Bu o‘z navbatida umuman faollikning pasayishini keltirib chiqaradi. Demak, oiladagi shaxslararo munosabatlarda o‘zaro muomaladagi sog‘lom ruhiyat, samimiyat mavjud ijobiy odatlarning barqarorligini kafolatlaydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, oila-hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta’minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga kelajak nasl qanday inson bo‘lib etishishiga ta’sir ko‘rsatadigan katta tarbiya o‘chog‘idir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз..Т.”Ўзбекистон”. 2016 й., 12 б.

2. Abdullaev H. Yashil daftar hikmati. -T.: O‘qituvchi, 2000.

3. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. - T.: Istiqlol, 2003. –

4. Ochilov M. Muallim qalb me’mori: Saylanma. -T.: O‘qituvchi

5. Dilova N.G., Saidova M.J. (2020). Formative assessment of students' knowledge as an innovative approach to education. The American Journal of Social Science and Education Innovations. 2:12, P. 190-196.

6. Dilova N.G., Saidova M.J. (2021). Innovative approach to education is a factor for developing new knowledge, competence and personal qualities. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). 1:10, P. 148-153.

7. Дилова Н.Г. (2021). Вспользование интерактивных методов в школьном обучении. Вестник интегративной психологии. № 21, С. 51-54.

8. Dilova N.G. (2021). Formative assessment of students'knowledge–as a means of improving the quality of education. Scientific reports of Bukhara State University. 3:5, pp. 144-155.

9. Дилова Н.Г. (2019). Влияние технологии сотрудничества на успеваемость учащихся начальных классов. International scientific review of the problems and prospects of modern science and education. С. 63-64.

10. Дилова Н.Ғ. (2018). Буюк аждодларимизнинг таълимотларида мужассамлашган ўқитувчи билан ўқувчилар ҳамкорлигининг педагогик хусусиятлари. Замонавий таълим. №3, 63-68 б.

11. Dilova N.G. (2017). Opportunities of Pupils’ Complex Development on the Bases of Modernization the Content of Primary Education. Eastern European Scientific Journal. No. 1, pp. 1-4.

12. Dilova N.G. (2017). Activity Areas of Primary School Teachers. Eastern European Scientific Journal. No. 6, pp. 1-6.

13.Dilova N.G’ (2017) O’quvchi shaxsini rivojlantirishda hamkorlik pedagogikasini o’rni. Zamonaviy ta’lim .1-son

14. Dilova N.G. (2015). Situation of cooperation and the problems solved in it. Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. 2: 13, pp. 102-103.

15. Дилова Н.Г. (2014). Значение процесса педагогического сотрудничества в формировании личности учащихся начальных классов. Сборники конференций НИЦ Социосфера. № 26, С. 190-193.

16. Dilova N.G. (2021). Sharq allomalarining ilmiy merosi – uchinchi renesans uchun katta imkoniyat. Science and Education. Vol. 2, Issue 10, 506-514 betlar.

17. Dilova N.G. (2021). Ajdodlarimiz merosi vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarga ta’lim-tarbiya berishning ahamiyati. Science and Education. Vol. 2, Issue 10, 515- 523 betlar. "Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor - 3.567 (SJIF) July 2022 / Volume 3 Issue 7 www.openscience.uz / ISSN 2181-0842 154

18.Dilova N.G (2021) Boshlang’ich ta’limda o’quvchilarda shaxslararo munosabatlarga kirishish ko’nikmalarini shakllantirish imkoniyatlari. Science and Education. Vol. 2, Issue 10, 524-533 betlar.

19.Dilova N.G (2021) Shaxslararo munosabatlarga asoslangan ta’lim jarayonini modellashtirish. Science and Education. Vol. 2, Issue 10, 534-546 betlar.